**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**“TASDIQLAYMAN”**
B.A.Xolikov
2024-yil “ ”
Ro‘yxatga olindi: № BD-60110900-1.04
2024-yil “ ”

# AMALIY O‘ZBEK TILI. DAVLAT TILIDA ISH YURITISH

# FANINING O‘QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 100 000 - Ta’lim
**Ta’lim sohasi:** 110 000 - Ta’lim
**Ta’lim yo‘nalishi:** 60110900- Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>O‘RT1106</td><td>O‘quv yili<br>2024-2025</td><td>Semestr<br>1</td><td colspan="2">ECTS - Kreditlar<br>6</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/modul turi<br>Majburiy</td><td colspan="2">Ta’lim tili<br>Rus</td><td colspan="2">Haftadagi dars soatlari<br>5</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1</td><td colspan="2">Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td colspan="2">Amaliy o‘zbek tili. Davlat tilida ish yuritish</td><td>72</td><td>108</td><td>180</td></tr>
</table>

**I.Fanning mazmuni**

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarning o‘zbek tilidan egallagan bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash va yanada kengaytirish, tanlagan ixtisosliklari doirasida davlat tilini puxta bilishlariga yordamlashish, ularning og‘zaki va yozma nutqini kasbiy atamalar bilan boyitish, o‘zbek tilidan yuqori darajada nutqiy savodxonlikni ta’minlashga erishishdan iborat.

Fanning vazifasi – nutqiy kompetentsiyani rivojlantirish, og‘zaki va yozma nutqda sohaviy terminlarni samarali qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish; ixtisoslikka oid matn tuzish, uni tahrir va tahlil qilish malakalarini hosil qilish; sohaviy hujjatlarni tuzish, shu jumladan, elektron hujjatlarni to‘ldirish va rasmiylashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish.

2

**II. Asosiy nazariy qism (amaliy mashg‘ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. O‘zbekiston – yagona Vatan**

Mustaqil O‘zbekiston. Vatan tuyg‘usi. Tinchlik shukronasi. O‘zbekiston jahon hamjamiyatida. Muhim sanalar va voqealar. O‘zbekistonning xalqaro aloqalari. O‘zbekiston a’zo bo‘lgan xalqaro tashkilotlar. Orfoepiya qoidalari. O‘zbek tilida tovushlar talaffuzi.

**2-mavzu. O‘zbek tili – Davlat tili**

Davlat tili tushunchasi. Til va jamiyat. Savodxonlik va imlo masalalari. Buyuk mutafakkirlarning til va nutq haqidagi fikrlari. O‘zbek tilining imlo qoidalari.

**3-mavzu. Milliy qadriyatlar – millat iftixori**

O‘lmas qadriyatlar. Milliy qadriyat – ma’naviy boylik. O‘zbek xalqining o‘ziga xos madaniyati. Milliy urf-odatlar, o‘zbek udumlari. Mehmondo‘stlik. Mehmon kutish odobi. O‘zbek tilida so‘z yasalishi.

**4-mavzu. Tarix va zamonamiz**

Ulug‘ ajdodlarimiz, ularning jahon ilm-fani taraqqiyotiga qo‘shgan hissalari. Amir Temur va temuriylar davrida til va adabiyot.



Tarix tilga kirganda. O‘zbekistonning qadimiy shaharlari. Tarixiy obidalar. Tilning leksik qatlamlari.

**5-mavzu. Buyuk allomalarimiz yaratgan buyuk xazina – ilmiy va madaniy meros.** Alisher Navoiy, Bobur, Mirzo Ulug‘bek kabi allomalarning asarlari. O‘zbek tilida antonim va paronimlar.

**6-mavzu. Zamonaviy dunyoda ta’lim**

Ta’lim tizimi, fan olamiga yo‘l. Oliy ta’lim. Ilm tantanasi. Dunyoda tan olingan ta’lim tizimlari. Kelajak bilimli yoshlar qo‘lida. O‘zbekistonda Yoshlar kuni. Yoshlar – innovatsion g‘oyalar tashabbuskori. Til va terminologiya.

**7-mavzu. Iqtidorli yoshlar – yurt kelajagi.**

Kelajak yoshlar qo‘lida. Yoshlar kelajak bunyodkori. O‘zbekistonda yoshlarga yaratilgan imkoniyatlar. O‘zbek tilida bir ma’noli va ko‘p manoli so‘zlar.

**8-mavzu. Muzeylar – o‘tmish va kelajak orasidagi ko‘prik**

Muzeylar – xalqning, millatning ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyoti ko‘zgusi. O‘zbekiston muzeylari. Bo‘lajak mutaxassis uchun soha muzeylarining ahamiyati. Jahonning mashhur muzeylari. Sohaviy terminlar va ularning qo‘llanishi.

**9-mavzu. Kitob mutolaasi**

Fan olamining o‘ziga xosligi. Kitob – bilimlar xazinasi. Kitob tarixi. Yangi davr adabiyotlari. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. Oliy ta’lim va kutubxona. Axborot - resurs markazlari. Virtual kutubxona. Erkin va turg‘un birikmalar. Frazeologik birliklarning turlari.

**10-mavzu. Adabiyot – ma’naviyatni yuksaltiruvchi manba**

Adabiyot – so‘z san’ati. Adabiy asarlarda umuminsoniy va milliy qadriyatlarning, shuningdek, insoniy fazilatlarning ulug‘lanishi. O‘zbek mumtoz adabiyoti. Bir qo‘lida qalam, bir qo‘lida davlat boshqargan buyuk siymolar. She’riyat bo‘stoni. Zamonaviy o‘zbek shoirlari. Nutq uslublari. Badiiy uslub va uning xususiyatlari.

**11-mavzu. Ommaviy axborot vositalari**

O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalarining faoliyati. Sevimli gazeta va jurnallar. Teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar, gazeta, jurnallar va shu kabi nashrlardagi materiallar, reklama matnlari tahlili. Tezkor axborot. Axborotdan unumli va o‘rinli foydalanish. Kompyuterlar. Internet. Axborot xavfsizligi. Internet madaniyati. Publitsistik uslub va uning xususiyatlari.

**12-mavzu. XXI asrda innovatsiyalar**

Insonga xos yaratuvchanlik. Inson aqli va qo‘li bilan yaratilgan meros. Buyuk kashfiyotlar. Fan-texnika taraqqiyoti, fan va amaliyot. XXI asr – nanotexnologiyalar asri. Barkamollik sari. Zamondoshlarimiz kashfiyotlari. Kasb sohasidagi

innovatsiyalar haqida ma'lumot. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.

**13-mavzu. Davrimizning global muammolari**

Global muammolar. Insoniyat oldida turgan global muammolar va ularning yechimi to'g'risida. Ekologik muammolar. Tabiatni asrash, toza ekologik muhit mas'uliyati. Maqola va uning turlari.

**14-mavzu. Tabiat va inson**

O'zbekiston iqlimi. Yurtimiz tabiatining o'ziga xosligi, tabiat hodisalari. O'zbekistonning o'simlik va hayvonot dunyosi. Inson – tabiatning bir bo'lagi. Inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro mutanosiblik. Orol fojiasi. O'zbekistonda ekologik harakat faoliyati. Reportaj tayyorlash. Intervyu olish va intervyu berish qoidalari.

**15-mavzu. Salomatlik sirlari**

Sog'lom turmush tarzini ta'minlovchi omillar. O'zbekistonda tabobatning rivojlanishi. Dorivor o'simliklar. To'g'ri ovqatlanish. O'zbek tilida omonimlar va ularning xususiyatlari

**16-mavzu. Huquqiy madaniyat**

Konstitutsiya – hayotimiz qomusi. Huquq va majburiyatlar, ularning himoyasi. Qonunlarni o'rganish va ularga rioya qilish. O'zbekiston fuqarolarining huquqlari va burchlari to'g'risida. Umumxalq leksikasiga kirgan huquqiy terminlar lug'atini tuzish. Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari.

**17-mavzu. Ilm maskanimiz hayotidan**

O'zbekistonda ta'lim tizimi. O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalari. Zamonaviy oliy ta'lim muammolari. Oliy ta'lim terminlari lug'atini tuzish. Siz o'qishga kirgan dargoh. Universitet tarixi va buguni. Universitet iftixorlari, bu yerda kamolga yetgan olimlar, fan arboblari. Ilm-fan haqidagi o'zbek xalq maqollaridan namunalar. So'zlashuv uslubi va uning xususiyatlari. Shevaga xos so'zlar.

**18-mavzu. Hayot mening tasavvurimda**

Yoshlarning hayotga munosabati va qiziqishlari haqida. Qiziqishlar olamida. Har kimning o'z fikri bor. Matn va uning ko'rinishlari. Dialogik matnning ma'no munosabatiga ko'ra turlari.

**19-mavzu. Komil insonni tarbiyalashda oilaning ahamiyati**. Oila – jamiyat tayanchi. O'zbek oilasi va uning o'ziga xosligi. O'zbek tilida ma'no ko'chish turlari.

**20-mavzu. Bo'lajak kasbim.**

Kasb tanlash mas'uliyati. Kasbning sirlari. Dunyodagi kasblar tarixi. Monologik matn. Monologik matnda mazmun izchilligi va ohang.

**21-mavzu. Ustoz maktabi.**

Sharafli kasb. Birinchi o'qituvchim. Kasbiy faoliyatda ustoz va shogird an'analari. Kasb bayramlarini nishonlash an'anasi. Keng va tor doirada



nishonlanadigan kasb bayramlari.Turli mamlakatlarda nishonlanadigan kasb bayramlari haqida qiziqarli ma'lumotlar. O'zbek tilida senonimlar.

**22-mavzu. Kasbim tarixi.**

Kasblar tarixi. Sohaning vujudga kelishi va rivojlanishi. Kasb taraqqiyoti haqidagi ma'lumotlardan xronologik jadval tuzish. Soha lug'atlari. Ularda terminlar va birikmalarning berilishi.

**23-mavzu. Iqtidor va mehnat**

Iqtidorli yoshlar. Qanday qilib muvaffaqiyatga erishish mumkin? Mamlakatimizda iqtidorli yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar. Yoshlikdagi mehnat keksalikdagi rohatning kafolatimi? Kasb sohasida muvaffaqiyatga erishishda mehnatning roli. Matnga so'z va termin tanlash.

**24-mavzu. Yetuk mutaxassis**

O'z ishining ustasi. Mening orzularim. Hunardan rizqing unar. Zamonaviy mutaxassis tushunchasi. Yetuk mutaxassis bo'laman. Soha ravnaqi. Mutaxassisning kasbiy kompetentsiyalari. Matn tahlili va tahriri.

**25-mavzu. Ilm sari yo'l**

Ilm va olam. Ilm martabasi martabalarning zo'ridir. Ilmga fidoyilik tushunchasi. Jamiyat va sohalar rivojida fanning o'rni. Ilmiy ishlarning fan va soha rivojiga qo'shadigan hissasi. Ilmiy ishlarning turlari haqida qisqacha tavsiflar. Annotatsiya va taqriz matnlari, ularda ifoda materialining xususiyatlari.

**26-mavzu. Kasb etikasi. Nutq odobi**

Odob-axloq tushunchasi. Soha xodimlarining odob-axloq qoidalari. So'zlashish odobi. Nutq madaniyati. Kasbiy faoliyatda nutq madaniyatining ahamiyati. Mutaxassisning nutq madaniyati. Meyor tushunchasi.

**27-mavzu. San'at va ma'naviyat**

San'at va ma'naviyat. O'zbek san'ati tarixi. Yurtimizning mashhur san'at ahllari. Men sevgan san'atkor. Xalq amaliy san'ati. Musiqaning qudrati. Umumxalq leksikasiga kirgan san'atshunoslik terminlari.

**28-mavzu. Men sevgan asar**

Zamonaviy o'zbek adabiyoti. Adabiyotning kishi ruhiy dunyosiga ta'siri. Sevimli asarim. Yangi nashrlar. Mashhur o'zbek adiblari ijodidan namunalar. Badiiy tasvir vositalari.

**29-mavzu. Iqtisod va hayot**

Iqtisod va hayot. Bozor iqtisodiyoti. O'zbekistonning jahon iqtisodiyotidagi o'ziga xos o'rni. Mamlakat iqtisodiyotida yuz bergan yangiliklar, o'zgarishlar, kelgusi rejalar. Umumxalq leksikasiga kirgan iqtisodiy terminlar.

**30-mavzu. Ish yuritish tili va uslubi**

| | |
|---|---|
| | Hujjat – ish yuritishning asosi. Hujjatchilik tarixi. Normativ (meyoriy) hujjat tushunchasi. Hujjat aylanishi. Elektron hujjatlar.<br>**31-mavzu. Hujjat turlari va xususiyatlari**<br>Hujjatlarning tasniflanishi. Hujjat rekvizitlari. Hujjat tayyorlashning asosiy qoidalari.<br>**32-mavzu. Tashkiliy hujjatlar va ularning turlari**<br>Tashkiliy hujjatlarning vazifasi. Tashkiliy hujjatlarning turlari. Tashkiliy hujjatlarning leksik va stilistik xususiyatlari. Shartnoma. Mehnat shartnomasi. Nizom. Yo‘riqnoma.<br>**33-mavzu. Farmoyish hujjatlari va ularning turlari**<br>Farmoyish hujjatlarining vazifasi. Farmoyish hujjatlarining turlari. Buyruq. Farmoyish. Ko'rsatma. Farmoyish hujjatlarining leksikasi va stilistik xususiyatlari.<br>**34-mavzu. Ma’lumot-axborot hujjatlari**<br>Ma’lumot-axborot hujjatlarining vazifasi. Ma’lumot-axborot hujjatlarining turlari. Tarjimai hol. Bildirgi. Tavsifnoma. Ishonchnoma.<br>**35-mavzu. Ma’lumotnoma. Majlis bayoni.**<br>Hisobot. Xizmat yozishmalari. Tilxat. Tushuntirish xati. Dalolatnoma.<br>**34-mavzu. Xizmat yozishmalari. Xatlar.**<br>Xizmat yozishmalarining vazifasi. Xizmat xatlarining turlari. So‘rov xati. Iltimos xati. Javob xati. Ilova xat. Tasdiq xati. Eslatma xati. Da’vo xati. Talab xati. Axborot xati. Kafolat xati.<br>**35-mavzu.** Diktant yozish san’ati<br>**36-mavzu.** Insho turlari va yozish texnikasi.<br><br>**III. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**<br>*Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:*<br>1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida belgilangan vazifalarning amalda bajarilishi bo‘yicha tilshunos va adabiyotshunos olimlarning fikr va mulohazalari bayon etilgan maqolalari bilan tanishish.<br>2. Til va yozuv. “O‘zbek yozuvlari tarixidan” mavzusida material tayyorlash.<br>3. “Davlat tili va men egallayotgan soha” mavzusida esse yozish.<br>4. Turli millatlarning urf-odatlari va an’analari mavzusida ijodiy matn tuzish.<br>5. “Yoshlar – innovatsion g'oyalar tashabbuskori” mavzusida ko‘rgazmali material tayyorlash.<br>6. Dunyoning mashhur universitetlaridan biri haqida referat tayyorlash. |



| | |
|---|---|
| | 7. Til va terminologiya. Mutaxassislik atamalari lug‘atini yaratish, ular ishtirokida gaplar tuzish.<br>8. Ixtiyoriy badiiy asar mutolaasi. “Asar taassurotlari” mavzusida esse yozish.<br>9. “Yangi davr adabiyotlari” mavzusida nostandart testlar tuzish.<br>10. Abdulla Qahhor hikoyalarida turg‘un birikmalarning qo‘llanishiga misollar keltirish.<br>11. Ixtiyoriy reklama matnini tahlil va tahrir qilish<br>12. Egallayotgan sohangiz bo‘yicha ilmiy maqolaga berilgan taqrizni tahlil qiling.<br>13. “Mutaxassisning odobi va nutqi” mavzusida dialogik matn yaratish.<br>14. Ish yuritish hujjatlaridan namunalar tayyorlash.<br>15. Alisher Navoiy-o‘zbek adabiy tilining asoschisi<br>16. Mirzo Ulug‘bek- olim va davlat arbobi<br>17. Jadidchilik harakati namoyondalari<br>18. Birlashgan millatlar tashkiloti haqida ma’lumot bering<br>19. Milliy madaniy markazlar haqida ma’lumot bering<br>20. O‘zbekison muzeylari<br>21. Dunyoning mashhur universitetlari<br>22. Tashkiliy hujjatlarning vazifasi. Tashkiliy hujjatlarning turlari.<br>23. Mutaxassisning nutq madaniyati. Me’yor tushunchasi.<br>24. Monologik matnda mazmun izchilligi va ohang.<br>25. Hujjatchilik tarixi. Normativ (me’yoriy) hujjat tushunchasi.<br>26. Hujjat aylanishi. Elektron hujjatlar.<br>27. Intervyu olish va intervyu berish qoidalari.<br>28. Mashhur o‘zbek adiblari ijodidan namunalar.<br>29. Badiiy uslub va uning xususiyatlari.<br>30. So‘zlashuv uslubi va uning xususiyatlari. Shevaga xos so‘zlar.<br>31. Erkin va turg‘un birikmalar.<br>32. Annotatsiya va taqriz matnlari, ularda ifoda materialining xususiyatlari.<br>33. Maqola va uning turlari haqida ma’lumot bering.<br>34. O‘zbek tilining imlo qoidalari va soha egalarining savodxonligi.<br>35. O‘zbek tili leksikasining boyish manbalari.<br>36. O‘zbek leksikografiyasi. Bir tilli va ko‘p tilli lug‘atlar bilan tanishish. |
| 3 | **V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:<br>• o‘zbek tilidagi matnlarni o‘rganish, amalda qo‘llash va tahlil qila bilish, hujjatlarni tayyorlash va yuritishda o‘zbek tilining imlo qoidalariga qat’iy amal |

| | |
|---|---|
| | qilish haqida ***tasavvurga ega bo‘lishi;*** **(bilim)**<br>• o‘zbek tilida matn tuzish, uni tahlil va tahrir qilish, sohaviy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish, kasbiy muloqot yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lish; ***bilishi va ulardan foydalana olishi;*** **(ko‘nikma)**<br>• talaba milliy va umuminsoniy qadriyatlar, mutaxassisligiga oidmavzularda bog‘lanishli matn tuza olishi va bunday matnlarni tarjima qilish *ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak;* (malaka) |
| 4 | **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• amaliy topshiriqlar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>**jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.** |
| 5 | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid amaliy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish. |
| 6 | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po‘latova X. O‘zbek tili (oliy ta’lim muassasalari rus guruhlari uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.– 288 b.<br>2. M.Abdurahmanova, D.Fattoxova, U.Xalmuxamedova, N.Inogamova, N.Egamberdieva. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2018. – 276 b.<br>3. Husanov N., Xo‘jaqulova R., Dilmurodova N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: TMI, 2017. – 336 b.<br>**Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>1. Lafasov U. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: ToshDSHI, 2016. –532<br>2. Aminov M., Madvaliev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo'llanma). – Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2017.<br>3. Asilova G. Bojxona tizimida me’yoriy hujjatlarni yuritish (rus guruhlari uchun o‘quv qo‘llanma). – Toshkent, 2016. – 176 b.<br>4. Rafiev A., Mahmudov N., Yuldashev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. –Toshkent, 2013. – 143 b.<br>**Axborot manbalari**<br>1. www. kutubxona.uz<br>2. www. ziyonet.uz<br>3. www. alishernavoiy.uz |



| | |
|---|---|
| | 4. http://sahifa.tj/uzbeksko_russkij.aspx<br>5. https://www.lex.uz<br>6. http://library.ziyonet.uz |
| 7 | Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2024-yil “____” _____ dagi “____”-sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| 8 | **Fan/modul uchun mas’ullar:**<br>Oydinov T Y. – SamDChTI “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi.<br>Sadinov F.P.– SamDChTI “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi. |
| 9 | **Taqrizchilar:**<br>Rashidova U. – SamDU “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi dotsenti v.b., (PhD)<br>Sadinova N. – SamDChTI “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi, (PhD). |